

VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

Tovar aylanmasi

2024- yilning yanvar-sentabrida chakana tovar aylanmasi 17 207,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	17 207,8	108,2	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	15 107,2	108,0	87,8
undan fuqarolarning xususiy mulki	2 100,6	109,5	12,2












Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 1 7207,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 9 376,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,2 foizga o'sdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	17 207,8	108,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	5 731,3	109,5	33,3
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	9 376,0	107,2	54,5
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 100,6	109,5	12,2

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 462,1 mlrd. so'm  54,1 %	Non va non mahsulotlari 135,8 mlrd. so'm  15,9 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 40,1 mlrd. so'm  4,7 %
Tovuq go'shti 58,9 mlrd. so'm  6,9 %	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (vong'oq, bodom, pista va boshqalar) 23,1 mlrd. so'm  2,7 %	Tuxum 23,9 mlrd. so'm  2,8 %
Ziravorlar 41,9 mlrd. so'm  4,9 %	Sut va sut mahsulotlari 25,6 mlrd. so'm  3,0 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 8,5 mlrd. so'm  1,0 %
Tuzlamalar 17,9 mlrd. so'm  2,1 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 2,3 mlrd. so'm  0,3 %	Nooziq-ovqat tovarlar 14,1 mlrd. so'm 1,6 %

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 854,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (462,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 246,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 858,8 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 332,7 mlrd. so'mni, otlar 48,6 mlrd. so'mni, parrandalar 6,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:



Ulgurji savdo tovar aylanmasi


Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar **Mikrofirma va kichik korxonalar**

Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 358,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 603,7 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 78,7 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 4 754,8 mlrd. so'mni tashkil etib 110,5 % ga o'sdi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 11 662,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8 foiz bo'lib, 4 793,9 ming so'mni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 17 207,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 852,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 106,3 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14 255,2 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 108,1 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 11 476,5 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 107,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 100,6 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 109,5 %) tashkil etdi.

Yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. soʻm)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahar (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (25,9 %), Koson va Chiroqchi tumanlari (8,4 %), Shahrisabz shahar (8,0 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 852,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 16 355,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,0 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,
(jamiga nisbatan foiz hisobida)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	852,0	106,3	16 355,8	108,3
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	353,2	93,9	3 944,2	111,0
Shahrisabz sh.	45,8	2,1 m.	1 278,9	106,1
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	34,5	2,9 m.	657,1	106,5
Dehqonobod	5,7	117,8	528,6	106,2
Qamashi	11,4	98,2	1 172,1	106,5
Qarshi	9,7	91,2	658,7	106,7
Koson	83,6	115,3	1 318,5	107,5
Kitob	17,8	142,3	849,7	107,3
Mirishkor	4,6	99,4	579,1	106,5
Muborak	2,2	5,4	467,8	116,9
Nishon	5,2	97,3	642,3	108,3
Kasbi	6,3	24,7	541,6	110,5
Ko‘kdala	39,7	272,8	523,7	105,7
Chiroqchi	35,0	85,7	1 354,0	108,4
Shahrisabz	98,0	182,1	510,6	105,4
Yakkabog‘	10,3	101,7	817,6	106,4

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘rish sur‘ati bo‘yicha Muborak tumani (116,9 %), Qarshi shahri (111,0 %), Nishon (108,3 %), Qarshi (106,7 %) va Kasbi tumanlarida (110,5 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,0 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Shshrisabz tumanida (16,1 %) Qarshi shahri (8,2 %), Ko‘kdala (7,0 %) tumanlarida kuzatildi.